



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 50 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi	10
Mirzaraxmonova Maftuna Ibroximjon qizi	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv	13
Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
Mahmudova Shoira Shavkat qizi	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
Gadoyeva Muborak Jumaqulovna	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna	
Xurshid Do'stmuhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati	37
Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	41
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
Joldasov Ixtiyor Suyundikovich	



“XONADA O‘SIMLIKLARNI O‘STIRISH” INTELLEKT XARITASI (MIND MAP) YORDAMIDA O‘QUVCHILARDA EKOLOGIK TARBIYA VA IJODIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

G‘aniyev Abduqahhor Gadoyevich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tabiiy fanlar kafedrası professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu maqsadda ko'rgazmali-timsolli fikrlashlari yaxshi bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bevosita atrofida ro'y beradigan hodisalar yordamida ma'lumotlarni idrok qilish samarali bo'ladi. Shu maqsadda “Xonada o'simliklarni o'stirish” bilan o'quvchilarning biologiya, ekologiya, fizika va boshqa fanlar bo'yicha tabiat qonunlarini o'rganishlari yaxshi natija beradi.

Shu maqsadda tadqiqotda xonada o'simliklarni o'stirish va jarayonni visual namoyon qilish uchun intellekt xarita (Mind Map) dan foydalanilgan. Tadqiqotda xona o'simliklarining ta'lim jarayoniga va inson salomatligiga ijobiy ta'siri haqidagi bilimlarini orttirib qolmasdan ularning tabiatini sevishtga – ekologik tarbiyaga ham o'rgatadi. Shuningdek tadqiqotda keltirilgan – “Xonada o'simliklar o'stirish” intellekt xaritasi o'quvchilarning tasavvurlari va “assotsiativ fikrlash” ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasi bo'ladi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiat haqidagi bilimlarga ega bo'lishlariga, tabiatni sevishtni o'rganishlariga yordam beradi. Maqola umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari, pedagogika institut talabalari va pedagogika sohasida ilmiy izlanuvchilarga mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Xona o'simliklari, tabiiy fanlar, science, ekologiya, sinf xonalari, ta'lim jarayoni, samaradorlik, intellekt xarita, tasavvur, assotsatsiya, ijodiy fikrlash, ko'nikma.

Abstract: Improving the effectiveness of the educational process remains one of the pressing issues of the modern education system. For this purpose, it is effective for primary school students with well-developed visual and figurative thinking to perceive information through phenomena occurring in their immediate surroundings. In this context, studying the laws of nature in biology, ecology, physics, and other subjects through the activity of “growing plants indoors” yields positive results. Accordingly, the study employs mind maps as a tool for growing indoor plants and visually representing this process. The research not only enhances students' knowledge about the positive effects of indoor plants on the educational process and human health, but also fosters a love for nature, contributing to environmental education. In addition, the “Growing Plants Indoors” mind map presented in the study serves as an effective means of developing students' imagination and associative thinking skills.

The results of the study help primary school students acquire knowledge about nature and learn to appreciate and care for it. The article is intended for primary school teachers of general education schools, students of pedagogical institutes, and researchers in the field of pedagogy.

Key words: Indoor plants, natural sciences, science, ecology, classrooms, educational process, effectiveness, mind map, imagination, association, creative thinking, skill.

Аннотация: Повышение эффективности образовательного процесса остаётся одной из актуальных проблем современной системы образования. С этой целью для учащихся начальных классов, обладающих хорошо развитым наглядно-образным мышлением, эффективным является восприятие информации с использованием явлений, происходящих в непосредственном окружающем пространстве. В этом контексте изучение законов природы по биологии, экологии, физике и другим дисциплинам посредством выращивания растений в помещении даёт положительные результаты.

В исследовании используется интеллектуальная карта (Mind Map) для выращивания комнатных растений и визуального представления данного процесса. Исследование не только расширяет знания учащихся о положительном влиянии комнатных растений на образовательный процесс и здоровье человека, но и способствует формированию любви к природе, то есть экологическому воспитанию. Кроме того, представленная в исследовании интеллектуальная карта "Выращивание растений в помещении" является эффективным средством развития воображения и навыков ассоциативного мышления у учащихся. Результаты исследования способствуют формированию у учащихся начальных классов знаний о природе и развитию бережного отношения к ней. Статья предназначена для учителей начальных классов общеобразовательных школ, студентов педагогических институтов и научных исследователей в области педагогики.

Ключевые слова: Комнатные растения, естественные науки, science, экология, учебные кабинеты, образовательный процесс, эффективность, интеллектуальная карта, воображение, ассоциация, творческое мышление, навык.

KIRISH

Psixologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, xona gullari inson kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi hamda emotional holatini yaxshilashi aniqlangan. Atrofida o'simliklar mavjud bo'lgan insonlar atrof-muhitga nisbatan yanada e'tiborli, tabiatga mehribon va g'amxo'r munosabatda bo'lishadi.

Bolalarni ana shunday ruhda tarbiyalash kelajakda nozik didli, ekologik madaniyatga ega va tabiatni sevuvchi mutaxassislarini shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, boshlang'ich sinf o'quvchilariga "Tabiiy fanlar" (Science)ni o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad - bolalarda olamning yaxlitligi, ajralmasligi va bir butunligi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, ularda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish hamda kreativ fikrlashni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir ^[1].

Mazkur jarayonda o'quvchilar biologiya, fizika, kimyo va ekologiya kabi tabiiy fanlarning qiyin yoki mavhum emasligini, aksincha amaliy va qiziqarli fanlar ekanligini anglay boshlaydilar. Hozirgi α -avlod vakillari oldingi avlodlarga nisbatan ekologik muammolarga ongli va mas'uliyatli yondashadi. Shuningdek, ular o'simliklarni parvarish qilishda mobil ilovalar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga moyillik bildiradilar.

O'simliklarni kuzatish va parvarishlash jarayoni α -avlod o'quvchilarini biologiya, ekologiya hamda fizika fanlariga oid fotosintez, yorug'likning tarqalishi, difraksiya kabi tabiiy jarayonlarni amaliy asosda o'rganishga undaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur tadqiqot tabiatning ajralmas qismi bo'lgan o'simliklar, ularni parvarishlash hamda ular bilan bog'liq jarayonlar haqidagi bilimlarni intellekt xarita (Mind Map) vositasida vizuallashtirish orqali o'quvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirish, ularning tasavvuri va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan.

Xona o'simliklari uylar, sinf xonalari hamda jamoat binolarida o'stiriladigan o'simliklardir. Tabiiy sharoitda Yer sharining tropik va subtropik hududlarida o'sadigan ko'plab o'simliklar xona sharoitida ham parvarish qilinadi. Ular asosan ikki guruhga: chiroyli gullaydigan va manzarali bargli o'simliklarga bo'linadi. O'zbekistonda aloe, amarillis, begoniya, gulsumbul, kaktus, uy limoni, atirgul, uzambar gunafshasi, xitoy atirguli, finik palmasi hamda fuksiya kabi o'simliklar keng tarqalgan. Ushbu o'simliklar kompostli, sof yoki chimli tuproq aralashmasi solingan yog'och, plastmassa, shisha tuvaklar hamda boshqa mos idishlarda, asosan deraza tokchalarida yoki qulay joylarda o'stiriladi. Ularni muntazam sug'orib turish, mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish va barglarini tozalab turish zarur.

Shuningdek, o'simliklarning yaxshi rivojlanishi uchun xona harorati va namlikning mo'tadil bo'lishi muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda limon, mandarin, apelsin, anjir kabi mevali o'simliklar ham xonadonlarda yetishtirilmog'da. Bundan tashqari, maxsus usullar bilan o'sishi sekinlashtirilgan pakana daraxtlarni ham xona sharoitida parvarishlash mumkin.

Xona o'simliklari nafaqat estetik go'zallik manbai, balki inson salomatligini mustahkamlash, ruhiy holatni yaxshilash, ta'lim samaradorligi va mehnat unumdorligini oshirishga ham xizmat qiladi ^[2]. Yashil rang inson ruhiyatiga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatib, qon bosimini pasaytiradi hamda yurak urishini me'yorga keltiradi ^[3].



Afrika binafshasining siyohrang gullari adrenalin ajralishini rag'batlantiradi. Natijada miyaga kislorod oqimi ortib, insonning dam olishi va ruhiy yengillik his etishiga yordam beradi. Shu sababli mehnat unumdorligi va ta'lim samaradorligi taxminan 15 foizga oshadi [4].

Sinf xonalarida o'simliklarning mavjudligi o'quvchilarning diqqatini jamlash qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda charchoqni kamaytiradi [5]. Tadqiqotlarga ko'ra, ingliz pechagi havoni tozalash xususiyatiga ega bo'lib, formaldegid va benzol kabi zararli moddalarni yutadi hamda o'quvchilarning hissiy holatini yaxshilaydi [6]. Boston qirqquloqlari barglari orqali suv bug'larini chiqarib, xona havosi namligini 5–10 foizgacha oshiradi.

Xona o'simliklaridan davolash maqsadida ham foydalaniladi. Jumladan, aloe qadimgi Misrda "umrboqiy o'simlik" sifatida qadrlangan bo'lib, hozirgi kunda ham kuyish va turli jarohatlarni davolashda qo'llaniladi [7]. Shuningdek, ayrim xona o'simliklari allergiya xavfini kamaytirishga yordam beradi. Masalan, o'rgimchaksimon o'simlik chang tufayli yuzaga keladigan allergik reaksiyalarni kamaytiradi hamda ikki kun ichida xona havosidagi toksinlarning qariyb 90 foizini o'zlashtiradi.

Gullaydigan xona o'simliklari, xususan anturium, stressni kamaytirishga xizmat qiladi. Potos (Epipremnum aureum) esa ko'z charchog'ini kamaytirib, glaukoma va katarakta kabi kasalliklarning rivojlanish xavfini pasaytiradi [3,5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Endi xona o'simliklarini parvarishlash haqidagi ma'lumotlarni vizuallashtirish vositasi hisoblangan intellekt xarita (Mind Map) yordamida tasvirlash hamda u orqali o'quvchilarning tasavvuri va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish usullarini ko'rib chiqamiz.

Intellekt xarita ma'lumotlarni vizuallashtirish va o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi [8]. Ayniqsa, ko'rgazmali-timsolli tasavvuri yaxshi rivojlangan kichik yoshdagi bolalarda undan foydalanish yuqori samaradorlik beradi [9].

Intellekt xaritaning qo'llanilishi bolalarda tasvirga qiziqishni kuchaytiradi hamda atrof-muhitda sodir bo'layotgan jarayonlar haqida mustaqil mulohaza yuritishga undaydi. Natijada ularda bir vaqtning o'zida bir necha xil fikr va g'oyalar paydo bo'ladi. Bu jarayon daraxt tanasidan shoxlar, shoxlardan esa mayda shoxchalar ajralib chiqishiga o'xshash tarzda rivojlanadi.

Intellekt xaritaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- inson miyasi faoliyatiga yaqin bo'lib, fikrlarning tabiiy ravishda tarmoqlanishini aks ettiradi;
- bosh miya yarimsharlarining birgalikdagi faoliyatini rag'batlantiradi;
- ma'lumotlarni vizual tarzda bir qarashda idrok etish imkonini beradi;
- ko'rgazmali-timsolli fikrlashga mos keladi;
- o'quvchilarni radiant fikrlashga, ya'ni bir vaqtning o'zida bir necha g'oyalarni ilgari surishga undaydi.

Intellekt xaritalardan foydalanish va ularni tuzish jarayonida o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalar rivojlanadi:

1. So'z boyligi kengayadi, analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi fikrlash usullari shakllanadi.
2. O'quvchilar asosiy fikrni ajratish, ma'lumotlarni solishtirish va guruhlariga ajratishni o'rganadilar.
3. Mustaqil ravishda fikr bildirish, savollarga javob qaytarish hamda yangi g'oyalarni ilgari surish ko'nikmalari rivojlanadi.

K.D. Ushenskiy "bolaga oddiy beshta so'zni o'rgatishdan ko'ra, rasmlar bilan bog'langan yigirmata so'zni o'rgatish osonroq" ekanligini ta'kidlagan [38]. Intellekt xarita aynan shu vazifani samarali bajarishga xizmat qiladi.

Intellekt xaritalar ma'lumotlarni vizuallashtirishning qulay vositasi hisoblanadi. Masalan, "O'simliklar dunyosi", "O'simliklar va inson", "O'simlikning tuzilishi", "O'simliklar va tabiat", "Hayvonlar dunyosi", "Hayvonlar va o'simliklar" kabi mavzulardagi intellekt xaritalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytiradi.

Bundan tashqari, intellekt xarita o'quvchilarda assotsiativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, "Inson va tabiat" mavzusidagi xaritada berilgan tushunchalar orasidagi umumiylik va bog'liqliklarni aniqlash orqali o'quvchilar mantiqiy xulosalar chiqarishni o'rganadilar.

Intellekt xaritalar guruhli ishlash faoliyatini ham samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Xarita tarkibidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, ular orasidagi bog'lanishlarni birgalikda aniqlash jarayoni o'quvchilarning hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Xaritalarda aks ettirilgan vizual ma'lumotlar esa axborotning xotirada uzoq saqlanishiga yordam beradi.


Shuningdek, intellekt xaritalar katta hajmdagi ma'lumotlarni tizimlashtirish va murakkab mavzularni soddalashtirib tushuntirish imkonini beradi. Ular o'quvchilarning tasavvurini kengaytirish, nostandart fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Xarita shoxlariga ma'lumotlarni joylashtirish jarayonida o'quvchilar tushunchalar orasidagi bog'lanishlarni izlaydi, bu esa assotsiativ fikrlashni rivojlantiradi. Natijada yangi va kutilmagan g'oyalarning yuzaga kelishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

Intellekt xarita tuzish jarayoni o'quvchilarda erkin fikrlash bilan bir qatorda chuqur tahlil qilish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Bir vaqtning o'zida xaritaning turli shoxlarida ishlash esa ko'p vazifalilik va parallel fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, intellekt xaritalar o'quvchilarga o'z fikrlarini tartibga solish, ularni muayyan tizim asosida joylashtirish hamda turli g'oyalarni yagona tuzilmaga birlashtirish imkonini beradi. Xarita tuzish jarayonida ma'lumotlarni erkin joylashtirish ijodiy tavakkalchilik va intuitiv fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Shunday qilib, intellekt xarita boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasavvurini rivojlantirish, bosh miya o'ng yarim sharini faollashtirish hamda miya yarimsharlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali nostandart va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Quyida "Xona o'simliklarini o'stirish" mavzusidagi intellekt xarita namunasi keltiriladi.



1-rasm: "Xonada o'simliklarni o'stirtish" intellekt xaritasi

Intellekt xarita yordamida o'quvchilarning tasavvurlari va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

1. Xonadagi o'simliklarning qanday foydali tomonlari bor?
2. Uyingizda qanday xona o'simliklari mavjud?
3. Aloeni taniysizmi? Uning foydali xususiyatlarini aytib bering.
4. Kaktusni ko'rganmisiz? Uning rasmini chizib bering.
5. Xitoy atirgulinining rangi qanday bo'ladi?



6. Xona gullarini ko'rganingizda qanday his-tuyg'ularni boshdan kechirasiz?
7. Xona gullarining ko'z salomatligi uchun foydasi bormi? Misollar bilan tushuntiring.
8. Xonada gul o'stirish uchun nimalar zarur?
9. Xona gullari qanday sug'oriladi? O'zingiz qo'llagan usullar haqida gapirib bering.
10. O'simliklarning yaxshi o'sishi uchun nimalarga e'tibor berish kerak?
11. Xona gullariga quyosh nuri kerakmi? Nima uchun?
12. Xona gullarining barglari nima sababdan sarg'ayadi?
13. Sinf xonasidagi gullarning nomlarini ayting va ularga ta'rif bering.
14. O'z xonangizda qanday qilib gul ekaningiz haqida so'zlab bering.
15. Intellect xaritada jarayonlar o'rtasidagi bog'lanishlarni tushuntiring.
16. Intellect xaritada gullarning o'xshash va farqli jihatlarini ayting.
17. Xona gullari haqida hikoya yoki ertak tuzing.
18. Xona gullarining rasmlarini chizing.

Maqolada xona o'simliklari va ularning inson hayoti hamda faoliyatidagi ijobiy ahamiyati haqida ma'lumotlar tahlil qilingan. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, xona o'simliklari ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bundan tashqari, o'simliklarning o'sishini kuzatish, ularni parvarish qilish va ulardagi o'zgarishlarni nazorat qilish o'quvchilarning biologik, ekologik hamda fizik jarayonlarni amaliy va jonli tarzda o'rganishiga yordam beradi.

Maqolada keltirilgan "Xonada o'simliklarni o'stirish" nomli intellekt xaritada xona o'simliklari, ularning foydali xususiyatlari, o'stirish uchun zarur sharoitlar hamda parvarish qilish usullari o'zaro bog'langan holda yagona tizim asosida joylashtirilgan. Ushbu bog'lanish va assotsiatsiyalarni aniqlash o'quvchilarning tasavvuri, mantiqiy tafakkuri hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yosh bolalarda vizual va ko'rgazmali-timsolli fikrlash ustun bo'lganligi sababli, ularning tasavvuri hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda o'simliklarning tuzilishini o'rganishga oid amaliy mashg'ulotlardan samarali foydalanish mumkin.

O'simliklarni o'stirish bo'yicha tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlar bolalarda mehnat ko'nikmalarini shakllantirish, tabiatga bo'lgan qiziqishni oshirish bilan bir qatorda, ma'lumotlarni qiziqish va ehtiros bilan idrok etish hamda tasavvurlarining rivojlanishiga yordam beradi.

"O'simliklarning tuzilishi" nomli intellekt xaritasi o'quvchilarning o'simliklar tuzilishi haqidagi ma'lumotlarni yaxlit holda idrok etishi hamda o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi haqida aniq tasavvur hosil qilishini ta'minlaydi.

O'quvchilarning tasavvuri va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida "O'simliklarning tuzilishi" intellekt xaritasi hamda undan foydalanishga oid savollar tizimi ishlab chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Malikova Y.V. Tabiiy fanlar (Science) 1-sinf uchun darslik. Toshkent. Novda Edutainment. 2023-yil, 52-bet. ISBN: 978-9943-9708-0-9
2. Wolverton Bill 1989. NASA texnik memorandum. NASA-TM-108061
3. Lohr V.I., Pearson MimS C.H. and Goodwik G.K (1996). Interior plants may improve worker productivity and reduce stress in a windowless environment. Journal of Environmental Horticulture. Vol 14. №2 p 97-100 (1996). DOI: 10.24266/0738-2898-14.29.7
4. Nicuwenhus M., Kinght C., Postmes T., Haslam S.A. The Relative Benefits of Green Versus Lean office space: Three Field Experiments. Journal of experimental Psychology: Applied 2014. Vol 20(3) 199-2014. DOI:10.1037/xop00000024
5. Raanas R.K., Redil G.G. and Hearting T. Benefits of Indoor Plants on Attention Capacity in an office Setting. Journal of Environment Psychology. 2011. Vol 31. P 99-105. DOI.10.1016/j.jenvp.2010.11005
6. Han K.T. Influence of limitedly visible leafy indoor plans on the psychology, behavior and health of students an junior high school in Taiwan. Environment and Behavior, 41(5), 658-692. DOI.101177/0013916508314476
7. Sucjushe A., Vasani R. and Sapl D. (2008) Aloe Vera: A short Review. Indian Journal of Dermatology. 53(4). 163-166 p. DOI:10:4103/0019-5154.44785
8. Бюзен Т. Супермышление: Сила мозга и техника его развития. Попурри. Минск. 2016. 240 стр. ISBN:978-985-15-1921-3
9. G'aniyev A.G. Abdunazarova Z.SH. Biophysics of brain activity. Brain activity in the development of "Creative thinking", "Mind map", Turkish Journal of Computer and mathematics education. Vol 12. №4 (2021). 1-6 p. DOI:10.177621/turcomat.V12i4.452
10. Ушенский К.Д. Человек как предмет воспитания. Изд. АСТ. 2022г.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.